

## TARIX FANLARINI O'QITISHNING INTEGRATSIYASINI TA'MINLASH

*Sirdaryo viloyati Xovos tumani 1- sonli matematika va fizika fanlariga  
ixtisoslashtirilgan davlat umumiy o'rta ta'lim maktabining tarix fani o'qituvchisi*

***Abdurahmonova Aysafar Sa'dullayevna***

***Annotatsiya:*** Maqolada umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tarix fanlarini o'qitishda o'quv jarayonlarida uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash orqali ta'lim samaradorligiga erishishning shakl, usul va vositalari bo'yicha fikr- mulohazalar yuritilgan. Tarix darslarini kurslararo uzviylikda olib borishning turli xil jumladan, xronologik, prespektiv, sinxron, axborot beruvchi aloqalari va turli shakllari keltirib o'tilgan.

***Kalit so'zlar:*** aloqalar, shakllar, o'quv rejalar, standart, kompetensiya, klaster, sinxron aloqalar, prespektiv aloqalar, o'quv uslubiy ta'minot.

Tarix predmetini o'qitishda kurslararo aloqalarning shakllanishi va uni amalga oshirish bilan bog'liq uzviylikni taminlashning o'ziga xos xususiyati fan asoslari, o'quv predmetining tuzilishi va mazmuni, uning DTS, dastur, o'quv rejasidagi maqsadi va o'rni bilan belgilanadi. Har bir o'quv fani, shu jumladan, tarix alohida bilimlar tizimi - dalil, tushuncha, g'oyalarning o'ziga xos mantiqiy bog'liqligidan iborat. O'quvchilar ularni obektiv voqelikni aks ettirishning barcha shakllari o'rtasidagi bog'lanishlarining ichki tizimini hosil qilish yo'li orqali o'zlashtiradilar. Bunday bog'lanishlarni yaratishda kurslararo aloqalar muhim rol o'ynashi ta'lim klasterida alohida dolzarblik kasb etmoqda. Bunda o'quvchilarning yilma-yil olgan bilimlari bir-biri bilan mantiqan bog'lab borilishi, Davlat ta'lim standartlari va iste'molchilar talablariga javob bera oladigan kompetensiyalar bilan maktabni tugatishi hamda ta'limning keyingi bosqichiga muvaffaqiyatli o'tishini

belgilab beradi. SHunga ko'ra umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quvchilari jahon tarixi va O'zbekiston tarixi darslarida kurslararo bog'lab o'rganish orqali ta'lim samaradorligini oshirishga katta etibor qaratishi lozim. Tarix darslarini kurslararo uzviylikda olib borishni quyidagi shakllarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. *Xronologik(retrospektiv) aloqalar*- yangi mavzuni tushuntirishda har ikkala tarix kursidan ilgari ma'lum bo'lgan o'quv materialiga tayanib o'quvchilarga murojaat qilinishi (masalan, "Arab xalifaligining vujudga kelishi va taraqqiyoti" - "Xalifalik mamlakatlari madaniyati").

2. *Perspektiv aloqalar*- kelgusida sistemali o'rganish ko'zda tutilgan materiallarga oldindan murojaat qilish. (chunonchi, insoniyat tarixi-g'oyalar tarixidan iborat ekanligi. Turli g'oyalarning tarixiy jarayonlarga ta'siri, "Kuch bilim va tafakkurda" g'oyasining mohiyati, "Buyuk ipak yo'li"ni tiklash g'oyasi va h.k.).

3. *Sinxron aloqalar*- tarix kurslarida mazmunan yaqin bo'lgan ikki mavzuni o'rganishning bir vaqtga to'g'ri (mos) kelishi yoki bir vaqtda sodir bo'lgan voqealar (masalan, o'rta asrlarning uchinchi davrida "Evropa xalqlari madaniyati" va "Temuriylar davrida ilm-fan va madaniy hayot", Temuriylar davri madaniyatining jahonshumul ahamiyat kasb etishi ).

4. *Axborot beruvchi aloqalar* - nazariy, tarixiy dalil va tushunchalar darajasidagi aloqalar bo'lib, ularga quyidagicha turkumlanadi:

a) nazariy jihatdan – tarix sinflar kurashidan iborat emas, balki u insoniyat jamiyatining taraqqiyoti haqidagi fan ekanligi. Inson tarixni yaratuvchisi, ishtirokchisi ekanligi, insoniyat doim oldinga intilganligi, bu esa tarixiy taraqqiyotning asosi bo'lganligi, butun borliq muvozanatdan, ya'ni o'zaro bog'liqlikdan iborat ekanligi va h.k.;

b) tarixiy dalillar – bilimlarning eng oddiy turlaridan hamda tahlil qilish va umumiy xulosa chiqarish uchun manba material hisoblanib, murakkabroq bilimlar tarkibi birliklari– tarixiy tushuncha, g’oya, nazariya, qonuniyatlarni o’zlashtirishda asos bo’lib xizmat qiladi. Masalan, 1402 yilda Amir Temurning tarixiy Anqara jangida Boyazidni tor-mor etishi, 1526 yilda Hindistonda Boburiylar imperiyasiga asos solinishi va h.k.; v) tarixiy tushunchalar - inson tafakkuri shakllaridan, predmet va hodisalarning umumlashtirish usullaridan biri bo’lib, uning yordamida narsalarning umumiy, muhim belgilari, ob’ektiv voqelik hodisalari bilib olinadi. Insonning tarixiy hodisa, jarayonlar mohiyatini teran anglashi tarixiy tushunchalarda o’z ifodasini topadi. CHunonchi, davlat, feodal tarqoqlik, markazlashgan davlat, mutloq monarxiya, dehqonlar qo’zg’oloni, natural xo’jalik va h.k.

5. *Uslubiy tavsifdagi aloqalar* – o’quvchilarning jahon va O’zbekiston tarixi bo’yicha tarixiy dalillarni o’rganishi natijasida olamni anglash, jamiyat taraqqiyotining yaxlit mohiyatini tafakkur orqali idrok etishi bilan shakllangan, umumlashgan aniq tasavvurlari, keng tushunchalarida hamda dunyoqarashga oid tamoyillar va g’oyalarda aks etadi (masalan, tarix ta’limidagi etakchi g’oyalar, “O’zbek xalqi va davlatchiligi tarixi” konsepsiyasining etakchi g’oyalari va h.k.).

6. *Faoliyatga doir aloqalar* ko’nikma va malakalar sistemasida amalga oshiriladi. (masalan, ijodiy fikrlash, o’quv-kommunikativ, tashkiliy, bibliografik va hokazo ko’nikma va malakalar). Mazkur rivojlantiruvchi ta’limning markazida shaxsni ta’lim-tarbiya vositasida maqsadga erishishga yo’naltirilgan umumiy va integrativ qobiliyat va tafakkurini shakllantirish yotadi. SHuningdek, o’quvchilarning kurslararo tarixiy bilimlarni aniqlashtirishlarida bir qator ushbu predmetga xos bo’lgan ko’nikmalar: tarixiy materialni zamon va makonda tahlil etish, taqqoslash kabilarni rivoshlantirish nazarda tutiladi.

Ta'lim klasteri asosida dars samaradorligini oshirish o'quv jarayonlarida ta'limning turli shakl va usullarini amaliyotga tatbiq etishni talab etadi. O'quvchilarni qisqa vaqt ichida kurslararo bog'lanish yordamida faol ravishda bilimlarini jalb qilib, materialni idrok etishlari uchun pedagog oddiy uslubiy usullarni qo'llashdan murakkabga qarab borishi lozim bo'ladi. Bular jumlasiga quyidagilar kiritildi: eslatish (misollar, dalillar keltirish va h.k.), topshiriq va savollar ( mantiqiy, muamoli va h.k.) berish, taqqoslash, tarixiy sayohat (tarixga nazar tashlash, o'tmishga sayohat), turli xil jadvallar tuzish, kurs mavzularini birlashtirib integratsion dars o'tish, yangi o'rganilayotgan materialni boshqa kursdan ma'lum bo'lgan material (tarixiy tushunchalar) bilan bog'lash orqali tahlil qilib umumlashtirish, yangi pedagogik texnologiya asosida dars o'tish, qo'shimcha manbalardan foydalanib dars o'tish, umumlashtiruvchi – takrorlash darslarida kurslararo aloqalardan foydalanish va b.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mahkamov S.T. Tarix ta'limida kurslararo uzviylikni ta'minlashning didaktik asoslari // ped. fanlari nomz. diss. – T.: 2005. –B. 180.
2. Ushinskiy K.D. Sochinenie. – M.: Izd-tvo APN RSFSR, 1949. Tom 6.–414 s.
3. Vagin A.A. Metodika obucheniya istorii. -M.: Prosvetnenie, 1972. 354 s.
4. Khakimov, S. R., & Sharopov, B. K. (2023). Educational Quality Improvement Events Based on Exhibition Materials in Practical Training Lessons. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education*, 1(2), 5-10.
5. Yuvmitov, A., & Hakimov, S. R. (2021). Influence of seismic isolation on the stress-strain state of buildings. *Acta of Turin Polytechnic University in Tashkent*, 11(1), 71-79.

6. Шаропов, Б. Х., Хакимов, С. Р., & Рахимова, С. (2021). Оптимизация режимов гелиотеплохимической обработки золоцементных композиций. *Матрица научного познания*, (12-1), 115-123.
7. Ювмитов, А. С., & Хакимов, С. Р. (2020). ИССЛЕДОВАНИЕ ВЛИЯНИЯ СЕЙСМОИЗОЛЯЦИИ НА ДИНАМИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ЗДАНИЯ. *Acta of Turin Polytechnic University in Tashkent*, 10(2), 14.
8. Hakimov, S., & Dadaxanov, F. (2022). STATE OF HEAT CONDUCTIVITY OF WALLS OF RESIDENTIAL BUILDINGS. *Science and innovation*, 1(C7), 223-226.
9. Yuldashev, S., & Hakimov, S. (2022). ТЕМИР ЙЎЛ ТРАНСПОРТИДАН КЕЛИБ ЧИҚАДИГАН ТЕБРАНИШЛАР ҲАҚИДА. *Science and innovation*, 1(A5), 376-379
10. Хакимов, С. (2022). АКТИВ ВА ПАССИВ СЕЙСМИК УСУЛЛАРИ ҲАМДА УЛАРНИНГ АСОСИЙ ВАЗИФАЛАРИ. *Journal of Integrated Education and Research*, 1(2), 30-36.
11. Toshpo'latovich, Y. O. (2022). INTERPRETATION OF SMART TECHNOLOGY IN TECHNOLOGY LESSONS. *Open Access Repository*, 9(11), 23-31.